

**INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH: XALQARO TAJRIBA VA
AMALIYOT**
10.34920/phe.2024.16.15
Aslanova D.X., Usmanova Z.I.

Annotatsiya. Hozirgi kunda YUNESKOga a'zo davlatlar ta'lim siyosatini baholovchilar inklyuziv yondashuvdan hamma uchun ta'lim maqsadlariga erishishni tezlashtirish va inklyuziv jamiyat qurishga yanada ko'proq yordam berish usuli sifatida foydalanishga kelishib olindi. Shu munosabat bilan inklyuziv ta'lumi kengroq tushuntirish - barqaror rivojlanish, umrbod ta'lim va jamiyatning barcha qatlamlari uchun teng ta'lim imkoniyatlarini ta'minlash uchun ta'lumi qo'llab-quvvatlashning yetakchi tamoyili sifatida qaralishi lozim. Ushbu maqlada Boloniya jarayoni va BMTning nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi mezonlariga mos keladigan inklyuziv ta'lim olish, ijtimoiy himoyaga va alohida ta'limga muhtoj shaxslarning kamsitmasdan munosabatda bo'lishini rag'batlantirish va rivojlanirishga karatilgan Yevropa tajribasi bilan tanishish va bu tajribani O'zbekiston OTMlarida joriy etish maqsad qilingan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim olish, inklyuziv sharoit, nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish, BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi, Erasmus+ dasturi, DECIDE loyihasi

**DEVELOPING INCLUSIVE EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE
AND PRACTICE**

Aslanova D.X., Usmanova Z.I.

Abstract. Today, education policy assessors in UNESCO Member States are using the inclusive approach as a way to accelerate the achievement of Education for all and further contribute to create inclusive societies. In this regard, inclusive education should be defined broadly as a guiding principle to support education for sustainable development, lifelong learning and equal educational opportunities for all sectors of society. The purpose of this article is to introduce European experience aimed at promoting and developing inclusive education, social protection and non-discriminatory treatment of people with special educational needs, in accordance with the criteria of the Bologna Process and the UN Convention on Human Rights of people with disabilities, and the implementation of this experience in Uzbekistan

Keywords: inclusive education, inclusive environment, ratification of the Convention on the Rights of Persons with Disabilities, UN Human Rights Council, Erasmus+ program, DECIDE project

Kirish

Bugungi kunda Jahon sog'lijni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 1 milliardga yaqin odam turli darajadagi nogironlik bilan yashaydi, ularning 80 foizi 18 yoshdan 64 yoshgacha bo'lgan odamlardir. O'zbekistonda 780 mingdan ortiq imkoniyati cheklangan inson istiqomat qiladi. Shulardan I guruh nogironlari 8,5%, II guruh nogironlari 71% va III guruh nogironlari 20,5%ni tashkil etadi. Nogironlar orasida 16 yoshgacha bo'lgan bolalar 97 ming kishini tashkil qiladi [8].

Ushbu aholi qatlamin jamiyat hayotiga to'laqonli jalb qilish uchun, ularni har tomonlama rivojlanirish, intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan shart-sharoitlarni yaratish-har bir davlatning muhim va dolzarb vazifasidir. Ushbu insonlarning rivojlanishi, ma'nан yetuk bo'lishida ta'limning o'rni beqies.

Shu bois butun jahonda bo'lganidek, O'zbekistonda ham imkoniyati cheklangan, tug'ma va bolalikda ortirilgan yoki biron bir surunkali xastalik natijasida nogironligi bo'lganlarga

e'tibor kun sayin kuchaytirilyapti. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ko'zda tutilgan vazifalarni bajarish yuzasidan imkoniyati cheklangan, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, ruhiy va jismoniy nogironligi mavjud yigit-qizlarni ijtimoiy hayotiga to'liq moslashishi va har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, ta'lim olishi hamda shu asnoda sog'ligini tiklashini ta'minlash belgilab qo'yilgan [2]. Buning uchun maxsus ta'lim muassasalari tashkil etilib, ularda malakali mutaxassislar jalb qilinmokda. Qonunchilikda imkoniyati cheklanganlarning huquqlarini himoya qilish bilan birga ularga inklyuziv sharoitlarni yaratish ko'zda tutilgan. Shu maqsadda shaharlarda va aholi gavjum bo'lган maskanlarda imkoniyati cheklanganlar uchun maxsus turar joylar qurilib, rekreatsiya zonalari tashkil etilgan holda umumiyo foydalanishdagi transport vositalaridan nogironlarning moneliksiz yurishi uchun sharoit yaratish evaziga ularning ishlab chiqarishga moslashuvini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha ish o'rinnari joriy etilmoqda.

Metodologiya

So'nggi yillarda O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini keng yo'lga qo'yish maqsadida belgilangan tadbirdorda yordamga mo'htoj yoshlarni o'qishga qamrovli jalb qilingan holda ularning rivojlanishidagi nuqsonini inobatga olinib, korreksion ta'limning bir qator yo'naliishlari bo'yicha uzlusiz ishlar amalga oshirilib kelinmokda. Shu bilan birga imkoniyati cheklanganlarning oliv ma'lumotli bo'lishi uchun qo'shimcha kvotalar soni oshirilib, ularning o'quv yurtlarini tugallagach, bandligini ta'minlash yuzasidan hamkor va mutasaddi tashkilotlar yordami yo'lga qo'yilgan. Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2021 yil 22 fevralda bo'lib o'tgan BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo'naliishlar, jumladan, nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konventsiyani ratifikatsiya qilish masalasi alohida e'tibor qaratildi [7]. Respublikamizda ushbu konventsiyani ratifikatsiya qilish natijasida imkoniyati cheklangan insonlar ta'lim olishi, kasbga ega bulishi uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda [1].

Nogiron talabalarning o'qishga borib kelishi uchun maxsus yo'lakchalar ajratilib, transport vositalarda chiqib tushishi uchun qulayliklar yaratilgan. Zaruriy infratuzilma mavjudligi bois, ularning ijtimoiy hayotga moslashuv jarayoni oson kechmoqda. Shuni ta'kidlamoq zarurki, hozirgi kunda dunyo miqyosida ta'lim jarayonini yanada demokratlashtirish, bu borada ortiqcha ta'qiqlarga yo'l qo'ymaslik yuzasidan jahon hamjamiyatining fikri o'zgarib, yangicha ta'lim tizimiga puxta yondashgan holda nogiron talabalarning o'zaro hurmat, bir-biriga ijobiy munosabatda bo'lish omillari shakllanayotir. Ayniqsa, inklyuziv ta'lim joriy etilgan o'quv muassasalari ishini takomillashtirish, ularni o'z sohasini yaxshi biladigan psixologlar, pedagoglar bilan ta'minlab, vaqtiga vaqtiga bilan mutaxassislarning malakasi, kasbiy salohiyati oshirilib borilmoqda.

1994-yil 7-10-iyunda Salamankada (Ispaniya) bo'lib o'tgan alohida ehtiyojli shaxslar ta'limi bo'yicha Butunjahon anjumanida ham hamma uchun ta'lim maqsadlarini ilgari surish va ushbu sohada amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar ko'rib chiqilgan edi. Anjumanning asosiy maqsadi - inklyuziv ta'lim yondashuvini ilgari surish, barcha uchun, ayniqsa, alohida ta'limga muhtoj yoshlar uchun uni ochiq bo'lishini ta'minlashdan iborat bo'lgan. 92 hukumat va 25 xalqaro tashkilot vakillaridan iborat xalqaro anjuman qatnashchilari barcha uchun ta'lim zarurligini yana bir bor ta'qidlab, alohida ta'limga muhtoj yoshlar va kattalar uchun muntazam ta'lim tizimida bilim berish zarurligi va dolzarbligini qayd etishgan. Yer yuzining turli mamlakatlaridan tashrif buyurgan hukumat vakillari va xalqaro tashkilotlar a'zolari o'z qoidalari hamda tavsiyalari ruhida rahbarlik qilishi mumkin bo'lgan alohida ehtiyojli shaxslarni o'qitish bo'yicha xamkorlik asosida ish yurishishga kelishib olingan edilar [3].

O'zbekistonda ham, bilim berishni yanada rivojlantirish, uni xalqaro miqyosga olib chiqish, bu borada to'plagan jahon tajribasini joriy etgan holda mahalliy shart-sharoitlar hisobga olinib, milliy mentalitetimizga xos va mos bo'lgan yoshlarni turli ta'lim muassasalariga to'laqonli jalb etish bilan, ularning xalqaro ta'lim standartlari asosida bilim olishini ta'minlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ta'lim tizimi va mazmunini demokratlashtirish borasida uning quyi bosqichidan oliy ta'limgacha yosh avlodning ta'lim

tarbiyasini sifat jihatdan ko'rib chiqish, uning zamon talablariga binoan yangilashga erishilyapti. Ayniqsa, mamlakatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan besh tashabbus-besh imkoniyat shiori ostida yoshlarning bilim olishiga bo'lgan qiziqishni oshirishga qaratilgan tadbirlarga keng amal qilinmokda.

Shu bilan birga shuni alohida ta'kidlash lozimki, inklyuziv ta'lim- ta'lim tizimini rivojlantirishning yangi ijtimoiy hodisasiidir. Inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, ijtimoiy tajriba va mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimini o'zgartirish maqsadida alohida qobiliyatga ega talabalarni boshqa tengdoshlari bilan birgalikda umumiy ta'lim jarayoniga kiritishdir.

Mamlakatimiz ijtimoy hayotida to'siqsiz va ta'lim tizimi uchun ma'qul bo'lgan g'oyalarning paydo bo'lishi, ularning pedagogik amaliyotda aks etishi - ta'lim tizimidagi munosabatlarni izchil va obyektiv o'zgartirishga olib kelishi, natijasida yangi tadqiqot obyekti sifatidagi yuzaga chiqishi deb qarashimiz lozim.

Inklyuziv ta'lim - qo'shma ta'lim (tarbiya), shu jumladan, imkoniyati cheklangan yoki bunday cheklovlariga ega bo'limgan shaxslar uchun qo'shma o'quv mashg'ulotlari, bo'sh vaqtvari, qo'shimcha ta'limning turli turlarini tashkil etishdan iborat.

Bugungi kunda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun mo'ljallangan ta'lim tizimiga qarashlarda katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Maxsus ta'lim tizimini qayta qurish zamonaviy qadriyatlarni aks ettirgani bois, nogironlar uchun ta'limni tashkil etishning eng muhim tendensiyasi – integratsiya hisoblanadi.

YUNESKOning a'zo davlatlar ta'lim siyosatini baholovchilar inklyuziv yondashuvdan hamma uchun ta'lim maqsadlariga erishishni tezlashtirish va inklyuziv jamiyat qurishga yanada ko'proq yordam berish usuli sifatida foydalanishga kelishib olindi. Shu munosabat bilan inklyuziv ta'limni kengroq tushuntirish - barqaror rivojlanish, umrbod ta'lim va jamiyatning barcha qatlamlari uchun teng ta'lim imkoniyatlarini ta'minlash uchun ta'limni qo'llab-quvvatlashning yetakchi tamoyili sifatida qaralishi lozim [9].

BMT tomonidan tashkilotga a'zo davlatlarga bu borada quyidagilar tavsiya etilgan:

1. Inklyuziv ta'lim – barcha uchun sifatli ta'limni ta'minlashga qaratilgan uzluksiz jarayon ekanligini e'tirof etish, shu bilan birga ta'lim sohasida o'quvchilar va jamiyatning xilma-xilligi bilan birga turli ehtiyoj hamda imkoniyatlarini, xususiyatlarini qadrlash, kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish.

2. Ijtimoiy tengsizlik va qashshoqlik muammolariga ustuvor e'tibor berilishi lozim, chunki ular inklyuziv ta'lim siyosati va strategiyasini amalga oshirish, ushbu muammolarni tarmoqlararo o'zaro hamkorlik siyosati doirasida hal etish yo'lidagi asosiy to'siqdir.

3.O'g'il-qizlarini uchun do'stona, samarali o'qishga yordam beradigan va barcha yoshlarni qamrab olishni ta'minlaydigan, ularning salomatligini saqlab himoya qiladigan, genderga sezgir bo'lgan o'quvchilarning o'zları, ularning oilalari va mahalliy hamjamiyatlarning faol roli va ishtirokini rag'batlantiradigan ta'lim madaniyati hamda iqlimini targ'ib qilish.

4.Talabalarning imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos keladigan zamonaviy texnologiyalar, usullar, uslublar, o'quv ishlarini tashkil etish shakllaridan foydalanish (inklyuziv ta'lim ishlab chiqishning bir qismi sifatida), shuningdek, o'quv materialining mazmunini moslashtirish, nogiron bolani o'zlashtirish, mavjud imkoniyatlarni moslashtirish yoki zarur o'quv va didaktik materiallarni ishlab chiqish uchun zarur hamda ular yetarli bo'lishiga erishish lozim.

Imkoniyati cheklangan talabalarni tengdoshlar guruhiга, tashkilot jamoasiga moslashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratish, bolalar faoliyatining interfaol shakllaridan foydalangan holda darslardan tashqari mashg'ulotlarni uyushtirish evaziga o'quvdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish muhim vosita hisoblanadi. Har biri ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish borasida o'zini namoyon qilishi ta'lim muassasa hayotida ishtirok etishi, shuningdek, ularning ta'lim yutuqlarini, mahsulotlarini baholashda imkoniyati cheklanganlarning qobiliyatlariga mos keladigan usullardan foydalanishga bo'lgan ehtiyojini

anglashga va xizmat qilishga, o‘quv dasturi hamda darsdan tashqari tadbirlarga keng o‘rin berilishiga erishish maqsadga muvofiqdir [6].

Natijalar

Samarqand iqtisodiyot va servis institutida ham inklyuziv ta’limni rivojlantirish buyicha muayyan ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, 2018-2022 yillarda Yevropa Ittifokining ERASMUS+ dasturi doirasida DECIDE loyihasi amalga oshirildi. (Loyihaning to‘liq nomi: 598661-EPP-1-2018-1-RO-EPPKA2-CBHE-JP (2018) -3492/001-001 (2018) – Imkoniyati cheklangan shaxslarga ta’lim xizmatlarini rivojlantirish. Ushbu loyihaning maqsadi- inklyuziv ta’lim olish, ijtimoiy himoyaga va alohida ta’limga muhtoj shaxslarning kmsitmasdan munosabatda bo‘lishini rag‘batlantirish va rivojlantirishdir. Ushbu qoidalar va talablar Boloniya jarayoni va BMTning nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi mezonlariga mos keladi [3,9].

Loyha doirasida, 2020-yil 24-noyabr va 2021-yil 16-dekabr kunlari Samarqand iqtisodiyot va servis institutida inklyuzivlikning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan Milliy ma’rifat kunlari (NAD-National Awareness Days) bo‘lib o‘tdi. Tadbirda O‘zbekiston ERASMUS+ milliy ofisining koordinatori, ERASMUS+ agentliklari (Bryussel, Belgiya), DECIDE loyihasi rahbari (Brashov Transilvaniya universiteti, Ruminiya), universitetlar ma’muriyati – DECIDE loyihasi ijrochilari, Aydaxo shtati professori ishtirot etdi. Universitet (AQSH), Sasseks universiteti (Buyuk Britaniya) Rivojlanish tadqiqotlari instituti doktoranti, Oliy ta’lim vazirligi vakillari, DECIDE xalqaro loyihasining xorijiy hamkorlari, magistrantlar va universitet talabalari, davlat xizmatchilari, NNT xodimlari, nogiron bolalarning ota-onalari, dunyoning 7 davlatidan DECIDE xalqaro loyihasi hamkorlari ishtirotida O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ijtimoiy qulay sharoitlar yaratish, to‘siqlar va inklyuziv oliy ta’lim imkoniyatlari bilan bog‘liq masalalar, nogironlarning huquqlari va turmush tarzi ko‘rib chiqildi. Shuningdek, DECIDE loyihasi doirasida talabalar o‘rtasida “Inklyuziv ta’limni tashkil etish bo‘yicha mening qarashlarim” mavzusida insho yozish bo‘yicha onlayn tanlov tashkil etildi. Bundan tashqari, NNT xodimlari, o‘qituvchilar, ota-onalar institutdagi imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish usullari va shart-sharoitlarini ko‘rib chiqdilar.

DECIDE loyihasi doirasida o‘qituvchilarni inklyuziv yondashuv va alohida ta’limga muhtoj shaxslar bilan ishslash bo‘yicha maxsus ko‘nikmalarga o‘rgatish uchun 8 ta o‘quv moduli ishlab chiqildi [10].

DECIDE loyihasi doirasida Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tomonidan birinchidan o‘qituvchilar va talabalar, ikkinchidan, davlat xizmatchilari va siyosatchilar, uchinchidan, nodavlat notiyorat tashkilotlari uchun kompleks barqaror o‘quv dasturlari ishlab chiqildi.

DECIDE loyihasini amalga oshirish doirasida talabalar o‘rtasida imkoniyati cheklangan shaxslarning inklyuziv ta’limiga oid ilmiy g‘oyalari tizimini shakllantirish, shuningdek, nogironlarning ijtimoiy, hissiy va xulq-atvordagi qiyinchiliklarning o‘ziga xosligi to‘g‘risida bilimlarni shakllantirish maqsadida malaka oshirish kurslari tashkil etildi. Kurs tinglovchilariprofessor-o‘qituvchilar, shuningdek, institutning turli bo‘lim xodimlari edi. Loyha doirasida inklyuziv ta’limni joriy etish bo‘yicha alohida ta’lim modullar yaratilgan holda, o‘quv jarayoniga tatbiq etildi. Bundan tashqari inklyuziv ta’limning 42 moduli bo‘icha DECIDE nomli elektron platformasi yaratildi [10].

Ta’lim-tarbiya jarayonini dasturiy va uslubiy ta’minalash, individual ta’lim dasturini amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri sifatida, ta’lim jarayonining barcha subyektlari uchun har qanday ma’lumotlardan doimiy hamda barqaror foydalanish imkoniyatiga e’tibor qaratildi. Inklyuziv ta’limni amalga oshirish borasida rejalshtirilgan natijalariga erishish, umuman olganda, o‘quv jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirish shartlari aniklandi. Inklyuziv ta’limning amalga oshirish doirasida ta’lim muassasasi nogiron o‘quvchilarning alohida ta’lim ehtiyojlarini qondiradigan darsliklar, shu jumladan, ularning ajralmas qismi

bo‘lgan elektron ilovalari bo‘lgan adabiyotlar, barcha o‘quv fanlari bo‘yicha tegishli o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar va materiallar bilan ta‘minlanishi ta‘lim dasturining muxim vositasi sifatida aloxida e’tibor berish zarur.

Ta‘lim muassasasi, yordamchi mutaxassislar bosma va elektron ta‘lim resurslaridan (ETR), shu jumladan, nogiron o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan elektron ta‘lim resurslaridan foydalanishlari kerak. Ta‘lim muassasasi kutubxonasi o‘quv rejasining barcha fanlari bo‘yicha nogiron talabalar uchun umumiylar va ixtisoslashtirilgan bosma o‘quv adabiyotlari hamda ETR bilan jihozlangan bo‘lishi, shuningdek, qo‘sishimcha kitoblar fondiga ega bo‘lishi lozimligi tavsiya etildi. Qo‘sishimcha adabiyotlar fondiga bolalar badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar, boshlang‘ich umumiylar ta‘limning asosiy o‘quv dasturini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotnoma-bibliografik va davriy nashrlar kiritilishi muhimligi aloxida ta‘kidlandi.

Imkoniyati cheklangan bolalar tahsil oladigan ta‘lim muassasasining kutubxonasida maxsus ruhiy va korreksion (maxsus) pedagogik ilmiy-metodik adabiyotlar, bosma o‘quv qo‘llanmalari va ETR bo‘lishi lozim. Shu jumladan, talabaning “akademik” bilimlari hayotiy ehtiyojlarini shakllantirishga mo‘ljallangan va qo‘sishimcha fondga ega o‘quv muassasasida tahsil olayotgan turli toifadagi nogiron talabalarni ta‘lim-tarbiyaning dolzarb masalalariga oid adabiyotlarga etiborini qaratish lozimligi muxim xisoblanadi.. Ushbu qo‘sishimcha fondga ilmiy va uslubiy adabiyotlar, ma’lumotnoma-bibliografik va nogiron o‘quvchining ta‘limi bilan birga keladigan davriy nashrlar kiritilishiga erishish lozim [6].

Ta‘lim muassasasi xodimlarining malakasini oshirishning uzluksizligi xodimlarning korreksiya pedagogikasi sohasida qo‘sishimcha kasbiy ta‘lim dasturlarini yetarli hajmda, kamida besh yilda bir marta litsenziyaga ega bo‘lgan ilmiy ta‘lim muassasalarida ishlab chiqilishi ta‘minlanishi kerak. Ushbu turdagilari ta‘lim muasassasi mazkur faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lishi lozim.

Muayyan toifadagi nogiron shaxs ta‘lim tashkilotiga o‘qishga kirganda (eshitish, ko‘rish, autizm spektrining buzilishi va boshq.) muassasa rahbarlari, mutaxassislarini va o‘qituvchilari tomonidan qo‘sishimcha kasbiy ta‘lim dasturlarini o‘zlashtirilgan holda ushbu toifadagi talabalar uchun yetarli darajada korreksion ta‘limi berilishi lozim. Ta‘lim tizimida ta‘lim, maxsus (tuzatish) va ilmiy muassasalarning o‘zaro kompleks hamkorligi uchun sharoit yaratilishi muhim hisobladi [9]. Bu esa yetishmayotgan kadrlar resurslarini to‘ldirish, doimiy uslubiy yordam ko‘rsatish va asosiy vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha tezkor maslahatlar olish imkonini beradi. Ta‘lim dasturi nogironligi bo‘lgan shaxsning ta‘lim, tuzatish pedagogikasi sohasida dalillarga asoslangan bo‘lib ishonchli innovatsion ishlanmalardan foydalangan holda tuziladi.

Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan talabalarining turli toifalari uchun, ularning xususiyatlari qarab, ta‘limning zarur darajasi va sifatini amalga oshirish, shuningdek, ushbu toifadagi bolalarning zarur ijtimoiylashuvini ta‘minlaydigan maxsus shartlarning yuqoridagi tarkibiy qismlarning har biri bo‘lishi kerak. Bu turli darajadagi ko‘rinishlarda, har hil sifat va hajmlarda amalga oshiriladi. Masalan, eshitish va ko‘rishda nuqsonlari bo‘lgan shaxslar uchun inklyuziv ta‘lim maydonini yaratishda moddiy-texnik ta‘minot ajralmas tarkibiy qismlardan biri sifatida ularning ta‘lim va tarbiyasi uchun texnik vositalari maksimal darajada mavjud bo‘ladi [7]. Ayrim ta‘lim vositalari har xil autizm spektrining buzilishi bo‘lgan insonlar uchun unchalik ustun ahamiyatga ega bo‘lmasi mumkin. Shu bilan birga, ikkinchisi uchun maxsus shartlarning “og‘irlik markazi” maxsus va boshqa tashkiliy-pedagogik shartlar mavjudigiga amal qiladigan o‘qitilgan pedagoglarga o‘tadi. Tayanch-harakat tizimida nuqsonlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun (bu holda, qoida tariqasida, eshitish yoki ko‘rish qobiliyatining buzilishi bo‘lmasa), to‘siksiz yashash muhitini yaratishdan tashqari, ta‘lim sharoitlarini tashkil etishning eng muhim sharti sifatida dasturiy-uslubiy ta‘minotni ko‘rish xususiyatlari, xususan, miya yarim pallasi tufayli nogiron talabaning operatsion va faoliyat imkoniyatlari mos ravishda pedagogik jarayonni tashkil etish birinchi o‘ringa chiqadi.

Xulosa

Shunday qilib, inklyuziv amaliyotni amalga oshirish nuqtayi nazaridan turli

mamlakatlarning ta’lim tizimlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limni amalga oshirishning majburiy asosi, bu - zarur huquq va erkinliklarni e’lon qilishni, shuningdek, qonun hujjatlari bajarilishini ta’minalash mexanizmlaridan iboratdir. Shu bilan birga, milliy ta’lim tizimlari inklyuziv ta’limni amalga oshirishning aniq konsepsiysi va strategiyasiga, jumladan, kadrlar tayyorlash tizimiga ega bo‘lishi kerak.

Demak, zamonaviy ta’limni rivojlantirishning dolzarb masalasi – barcha uchun ma’qul keladigan ta’lim muassasalarida qulay va uzluksiz ta’lim tizimiga o’tishdan iborat. Barcha talabalar uchun maqbul bo‘lgan maqsadlarni qo‘ygan holda o‘quv jarayonlarini shakllantirish, har birini iloji boricha qo‘llab-quvvatlash va yoshlar salohiyatini eng yuqori darajada ochib berish borasida yuzaga keladigan to‘silqlarni bartaraf etish oliv ta’lim muassasalarining muhim vazifasidir.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi Ta’lim to‘g‘risidagi O‘RQ-637-sonli Qonuni (<https://lex.uz/docs/5013007>)
3. Aslanova D.X., Usmanova Z.I. Inclusiv ta’lim konsepsiysi. ERASMUS+ “Developing Services for Individuals with Disabilities” - DECIDE xalqaro loyiha doirasida taylorlangan O‘quv qo‘llanma / Samarkand.: SamISI, “STAP-SEL” - 2021 y., 112 bet.
4. Mitchell D.(2014) What Really Works in Special and Inclusive Education: Using Evidence-BasedTeaching Strategies, 2nd ed. London: Routledge, 253 p. available: http://samples.sainsburysebooks.co.uk/9781136253447_sample_493081.pdf
5. Preceley I. &D’Andrea F. M (2008) Assistive Technology for Students who are Blind Or Visually Impaired: A Guide to Assessment. N.Y.: AFB Press. 529 p.
6. Forlin C., Loreman T. (2014) Measuring Inclusive Education. International Perspectives on Inclusive Education, Volume 3. Emerald, 329 p.
7. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/02/22/un-human-rights/>
8. https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/un_uzb_PB_PWD_uzb.pdf
9. https://www.ohchr.org/sites/default/files/Documents/Publications/CRPD_Training_Guide PTS19_EN_Accessible.pdf
10. <https://decideproject.ie/modules/>